

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**O'SIMLIKLER KARANTINI VA HIMOIYASI ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI**

**YO'LDOSHOV ABDULAZIZ ABDUMALIK O'G'LI**

**NO'XAT HOSILDORLIGI VA DONINING SIFAT KO'RSATKICHLARIGA  
GERBITSID HAMDA BIOSTIMULYATORLARNING TA'SIRI**

**06.01.08 – O'simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2026**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish  
uchun tayyorlangan dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Yo‘ldoshov Abdulaziz Abdumalik o‘g‘li**

No‘xat hosildorligi va donining sifat ko‘rsatkichlariga gerbitsid hamda  
biostimulyatorlarning ta’siri..... 3

**Юлдашов Абдулазиз Абдумаликович**

Влияние гербицидов и биостимуляторов на урожайность нута и показатели  
качества его зерна..... 21

**Yuldashov Abdulaziz Abdumalikovich**

Impact of Herbicides and Biostimulants on Chickpea Yield and Grain Quality  
Characteristics..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSC.08/2025.27.12.QX.02.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI**

**YO‘LDOSHOV ABDULAZIZ ABDUMALIK O‘G‘LI**

**NO‘XAT HOSILDORLIGI VA DONINING SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA  
GERBITSID HAMDA BIOSTIMULYATORLARNING TA‘SIRI**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT– 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Qx1401 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tdau.uz](http://www.tdau.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turdiyeva Nilufar Muminovna**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Azizov Baxram Muzaparovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Bobomurodov Ziyodulla Sayfiddinovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiyasi himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111218, Toshkent viloyati Qibray tumani Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99878) 260-48-00; (+99878) 260-38-60; e-mail: [tuag\\_info@edu.uz](mailto:tuag_info@edu.uz)). Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 556757 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111218, Toshkent viloyati Qibray tumani Universitet ko'chasi, 2-uy, Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 4-avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil 4-avgustdagi 22-raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.G'.Boboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., professor

**A.A.Qurbonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,  
dotsent

**A.A.Iminov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisi sonining muttasil ortib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirmoqda, natijada global miqyosda millionlab odamlar yetarli darajada ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Dunyo dehqonchiligida dukkakli don ekinlari 200 mln gektardan ortiq maydonga ekilib, shularning 14,8 mln gektarini no'xat (*Cicer Arietinum*) maydonlari tashkil etsa-da, aksariyat mamlakatlarda ushbu mahsulot importi yuqoriligicha qolmoqda<sup>1</sup>. Shu bois dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholini sifatli va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda tuproq unumdorligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni samarali hal etish uchun sug'oriladigan va lalmikor maydonlarda no'xat yetishtirishda ilmiy jihatdan asoslangan, yuqori hosildorlikni ta'minlovchi, don sifatini yaxshilovchi hamda resurslardan tejankor foydalanishga yo'naltirilgan zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda dukkakli ekinlar, jumladan no'xat ekinida begona o'tlarni samarali nazorat qilish maqsadida yangi avlod gerbitsidlarini qo'llash, me'yorlarini optimallashtirish, madaniy o'simliklarga ta'sirini kamaytirish hamda kimyoviy va biologik usullarni uyg'unlashtirgan integratsiyalashgan himoya tizimlari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, gerbitsidlar ta'sirida yuzaga keladigan fiziologik stressni kamaytirish va o'simliklarning o'sish-rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishda biostimulyatorlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Begona o'tlar madaniy o'rimliklarga ozuqa moddalar suv va yorug'lik uchun raqobatlashib hosildorlikning pasayishiga hamda kasallik va zararkunandalarning tarqalishiga sabab bo'ladi. Gerbitsidlar qo'llanganda esa o'simliklarda vaqtinchalik fiziologik stress yuzaga kelib, o'sish va rivojlanish jarayonlari qisqa muddatga kechikishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, begona o'tlar va noto'g'ri tashkil etilgan kimyoviy ishlov natijasida hosildorlik 30–50 % gacha kamayishi mumkin. Shu bois gerbitsid qo'llangach, o'simlikni stressdan chiqaruvchi biostimulyatorlar qo'llash tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Respublikamizda no'xat 2024-yil ma'lumotlariga 62,1 ming gektar maydonga ekilib o'rtacha don hosildorligi 9,8 s/ga ni yetishtirilmoqda. O'zbekistonda no'xat keng ko'lamda ekiladigan dukkakli ekinlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonida muhim vazifalar belgilangan. Shu boisdan, Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida no'xat navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda dalalarda uchraydigan begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar ta'sirida yuzaga keladigan kimyoviy stressni kamaytirishda biostimulyatorlardan foydalanish hamda ularning o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-4567334>

aniqlashga qaratilgan agrotekhnologiyani ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-sonli<sup>3</sup> "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, 2023-yil 9-noyabrdagi O'RQ-877-sonli<sup>4</sup> "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida" qonun, 2024-yil 8-martdagi PQ-136-sonli<sup>5</sup> "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotekhnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda no'xatni sug'oriladigan va lalmikor maydonlarda yetishtirish hamda begona o'tlarga qarshi kurash chora-tadbirlari ishlab chiqish bo'yicha xorijda B.Chala C.Chambolle, P.Du Jardin, R.Khan, G.Bodnar, B.Балашов, Г.Лавриненко, Н.Германцева, Г.Лавронов, S.Holt, C.M.Ghera, R.L.Zimdahl, C.L.Mohler, R.Malhotra va M.Saxenalar respublikamizda X.Atabaeva, I.Hamdamiyov, L.Savkina, S.Mustanov, Z.Bobomurodov, Z.Yuldosheva, G.Mirsharipova, Z.Bobokulov, A.Abdiyev, R.Jurayev, O.Qosimov, J.Ergashev, M.Qurbonov, N.Turdieva va B.Mavlonov kabi bir qator olimlar tomonlaridan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo, no'xat ekinida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kimyoviy kurashish, ya'ni gerbitsidlar qo'llangach ekin kimyoviy stressini oldini olish uchun biostimulyatorlarni qo'llash tizimi ishlab chiqilmagan. No'xat o'simligida begona o'tlarga qarshi gerbitsid bilan birga biostimulyatorni ketma-ket qo'llash, don hosildorligi va donning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri yuzasidan ilmiy izlanishlar deyarli olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusini tadqiqotlar olib borilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining "No'xat hosildorligi va donining sifat ko'rsatkichlariga gerbitsid hamda biostimulyatorlarning ta'siri" (2022-2024 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** No'xat ekinini dalalaridagi begona o'tlarga qarshi kurashda gerbitsidlar yuzaga keltiradigan kimyoviy stressni kamaytirish uchun qo'llanilgan biostimulyatorning no'xat navlari o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash asosida biologik va iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

no'xat ekin maydonlarida tarqalgan asosiy begona o'tlarning turi tarkibi, miqdori va qo'llaniladigan gerbitsidlarining biologik samaradorligini hamda

---

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-5514214>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6658263>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-7469633>

biostimulyatorlarning o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini aniqlash;

qo'llaniladigan gerbitsidlardan keyin berilgan biostimulyatorning no'xat o'simligining unib chiqishi, yashovchanligi, ildiz tizimi massasi hamda vegetatsiya davri davomiyligiga ta'sirini o'rganish;

gerbitsidlardan so'ng qo'llangan biostimulyatorlarning quruq modda to'planishi va fotosintetik sof mahsuldorligiga ta'sirini o'rganish;

begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llanilgandan keyin ishlatilgan biostimulyatorning no'xat doni hosildorligi, sifat ko'rsatkichlari, oqsil va moy miqdoriga ta'sirini aniqlash;

no'xatning hosil elementlari, hosil strukturasi, umumiy hosildorligi hamda don sifat ko'rsatkichlarga gerbitsid va biostimulyatorni qo'llashing iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida no'xatning «Zumrad» va «Polvon» navlari, gerbitsidlardan Yastar em.k. (pendimethalin 330 g/l); Gambit sus.k. (prometryn 500 g/l); Pilot Gold 10% sus.k. (imazethapyr 100 g/l) singari preparat turlari hamda Ekobiosfera organik plyus biostimulyator olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida no'xatda uchrab eng ko'p zarar keltiradigan begona o'tlarning tur tarkibi, ularning miqdori va zarar keltirish darajasi, gerbitsid va biostimulyatorlarning samarasi, no'xatning rivojlanish fazalarini o'tish muddatlari, dala unuvchanligi, ildiz tizimi, bargi yuzasi, fotosintetik faoliyati, don sifati, va hosildorligini aniqlash, hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazilish, o'simliklarning biometrik o'lchovlari, fenologik kuzatuvlar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Begona o'tlar tarqalishi va zararini baholash metodi», «O'zbekiston sharoitida begona o'tlarni identifikatsiya qilish metodikasi», «Методика агрохимических анализов почв и растений», «Методика агрофизических исследований», «Методические рекомендации по оценке качества зерна», «Методы биохимического исследования растений», «Qishloq xo'jaligida pestitsidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tkazish uchun usul va shartlari» va preparatlarning biologik samaradorligi Abbot formulasi uslubiy qo'llanma, tajriba natijalari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» dispersion tahlil uslubi hamda «Microsoft Excel» dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida no'xatning Polvon va Zumrad navlarini yetishtirishda ekinzorda uchraydigan begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar va Ekobiosfera Organik plyus biostimulyatorini birgalikda qo'llash me'yorlari aniqlangan va ilmiy asoslangan;

no'xat navlari urug'larini ekish bilan bir vaqtda qo'llaniladigan Yastar 33 % em.k. (3,0 6,0 l/ga), vegetatsiya davrida qo'llaniladigan Gambit 50 % sus.k. (1,5-3,0 l/ga) va Pilot Gold 10 % sus.k. (0,5-0,6 l/ga) gerbitsidlarining begona o'tlarga qarshi ta'siri qiyosiy o'rganilib, Pilot Gold 10 % sus.k. (0,5 l/ga)

gerbitsidining biologik samaradorligi eng yuqori (87,6-96,8 %) bo'lganligi aniqlangan;

no'xat navlari urug'larini ekish bilan birga va vegetatsiya davrida qo'llanilgan gerbitsidlarning o'simlikda yuzaga keltiradigan kimyoviy stressini kamaytirish maqsadida Ekobiosfera Organik plyus biostimulyatori bilan ketma-ket ishlov berish tizimi ilmiy asoslanib, ushbu usulda dala unuvchanligi 96,9-98,3 % gacha oshishi, ildiz tizimi massasi esa nazoratga nisbatan 18,6-22,8 % ga, vegetatsiya davri davomiyligi nazoratga nisbatan 3-6 kunga qisqarganligi aniqlangan;

gerbitsidlar va biostimulyator ketma-ket qo'llanilganda nazorat variantga (gerbitsid va biostimulyator qo'llanilmagan) nisbatan no'xat navlarining quruq modda massasi 7,9-9,2 m<sup>2</sup>/ga gacha, barg yuzasi 1397,1-1445,1 m<sup>2</sup>/ga gacha va fotosintetik sof mahsuldorligi 6,62-7,05 g/m<sup>2</sup> ga yuqori bo'lishi ilmiy jihatdan asoslangan;

gerbitsid-biostimulyator kombinatsiyalarining ijobiy ta'siri natijasida no'xat navlarida bir o'simlikdagi dukkaklar soni o'rtacha 39,2-39,5 dona, donlar soni 42,6-44,8 dona, 1000 dona don vazni 297,1-308,6 g bo'lishi hamda don hosildorligi 28,6-30,6 s/ga, oqsil miqdori esa 21,5-26,0 % ga yetgani aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida no'xat «Zumrad» va «Polvon» navlarida begona o'tlariga qarshi ta'sir etuvchi moddasi imazetapir bo'lgan Pilot Gold 10 % sus.k. (imazetapir) esa 91,2 % biologik samaradorlik ko'rsatib, begona o'tlar soni nazorat variantiga nisbatan «Polvon» navida o'rtacha 0,4 dona/m<sup>2</sup>, «Zumrad» navida esa 0,6 dona/m<sup>2</sup> gacha qisqargani aniqlangan;

asosiy ekin sifatida no'xat ekinida qo'llaniladigan gerbitsidlarining begona o'tlarga qarshi biologik samaradorligini hamda salbiy ta'sirini kamaytirishda biostimulyatorni qo'llanilishi natijasida no'xat navlarining hosildorligi 28,6–30,6 s/ga, qushimcha hosil navlar kesimida mos ravishda 8,2-9,2 s/ga ni tashkil qilgan;

eng yuqori iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlari no'xat navlarida Pilot gold 10% sus.k. + Ekobiosfera Organik Plyus qo'llanilganda 1 gektardan sotilgan yalpi mahsulot bahosi 50,2 mln so'm/ta ni, sof foyda 32,1 mln so'm/ga ni, rentabellik darajasi 176,8 foizni tashkil etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala va laboratoriya sharoitlaridagi tajribalar va taxlilarni o'tkazishda uslubiy qo'llanmalardan foydalanilgan holda tadqiqot natijalarini dispersion tahlil usuli bilan matematik ishlovdan o'tkazilganligi, tadqiqotlardan olingan nazariy natijalarni amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi tajriba natijalari respublika va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, to'langan ma'lumotlar va hisobotlar har yili O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashida muhokama qilinib, mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalari Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar qilinganligi va ilmiy nashrlarda chop etganligi natijalarning ishonchliligini asoslaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati no'xat dalasida uchraydigan begona o'tlarning turlar tarkibi, tarqalishi va zarar yetkazish darajasining ilmiy asoslangan diagnostikasi ishlab

chiqilib, ularni boshqarishda gerbitsid va biostimulyatorlarni uyg'un qo'llashning yangi ilmiy yondashuvi taklif etilganligi, Yastar, Gambit va Pilot gold gerbitsidlarining begona o'tlarga qarshi samaradorligi hamda ular qo'llanilganda no'xatning kimyoviy stressga javob reaksiyalarini o'rganish asosida stressni yumshatuvchi biostimulyator qo'llashning no'xat navlari dala unuvchanligi, o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati hamda hosil elementlarining shakllanishiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanganligi va olingan yangi ma'lumotlarning o'simlik fiziologiyasi, dukkakli ekinlar agrotexnologiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar bazasini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanda.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gerbitsidlardan keyin biostimulyator qo'llashning eng maqbul tizimi aniqlanib, no'xat yetishtirishda begona o'tlarga qarshi kurashning samaradorligi oshganligi, xarajatlar kamayganligi va hosildorlik sezilarli ravishda ortganligi, ishlab chiqilgan tavsiyanomadan no'xat yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish, begona o'tlar bilan kurashni zamonaviylashtirish va ekologik xavfsiz texnologiyalar yaratishda asosiy ilmiy-amaliy manba sifatida fodalanish imkoniyati msvjudligi bilsn baholanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** No'xat hosildorligi va donning sifat ko'rsatkichlariga gerbitsid hamda biostimulyatorlarning ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

"No'xat hosildorligi va donining sifat ko'rsatkichlariga gerbitsid hamda biostimulyatorlarning ta'siri" nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan hamda Toshkent viloyatida amaliyotga joriy etilgan (*Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 05/05-04-749-son ma'lumotnomasi*). Natijada ushbu tavsiyanoma no'xat dalalaridagi begona o'tlarga qarshi ishlatilgan gerbitsidlar salbiy ta'sirini kamaytirishda biostimulyator qo'llangandan keyin yuqori hosil yetishtirishda Toshkent viloyati fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari uchun no'xat ekinida yuqori va sifatli hosil yetishtirishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

sug'oriladigan yerlarda no'xatning Polvon va Zumrad navlari ekinlari orasida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kurashishda gerbitsidlarni kema-ket qo'llash agrotadbiri Toshkent viloyati Qibray tumanidagi "Turkiston Shernazarova Nargiza" fermer xo'jaligida 5,0 (besh) gektar, "Zoxidov Anvar Fayz" fermer xo'jaligida 15,0 (o'n besh) gektar, Toshkent viloyati O'rtachirchiq tuman "Zero max agro business" fermer xo'jaligida 10,0 (o'n) gektar, Toshkent viloyati Yangiyo'I tumani "Abdushukur Baraka" fermer xo'jaligi 5,0 (besh) gektar, jami 30,0 gektar maydonlariga joriy etilgan (*Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 05/05-04-749-son ma'lumotnomasi*). Natijada, urug'larini ekish bilan bir vaqtda begona o'tlarga qarshi kurashish bo'yicha Yastar 33 % em.k. (3,0-6,0 l/ga) qo'llanilganda 90,2-91,9 % biologik samaradorlik, vegetatsiya davrida Gambit 50 % sus.k. (1,5-3,0 l/ga) qo'llanilganda 89,8-90,7 % biologik samaradorlik va Pilot Gold 10 % sus.k. (0,5-0,6 l/ga) qo'llanilganda 89,8-91,2 % biologik samaradorlikka erishilgan;

no'xat hosildorligi va don sifatiga ekin dalalaridagi begona o'tlarga qarshi ishlatilgan gerbitsidlar ta'sirida yuzaga keladigan kimyoviy stressni kamaytirishda biostimulyator qo'llash agrotexnologiyasi Toshkent viloyatining sug'oriladigan

yerlarida, jami 30,0 gektar no'xatda joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 05/05-04-749-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida no'xatning urug'larini ekish bilan bir vaqtda begona o'tlarga qarshi Yastar 33 % em.k. (3,0 6,0 l/ga), vegetatsiya davrida Gambit 50 % sus.k. (1,5-3,0 l/ga) va Pilot Gold 10 % sus.k. (0,5-0,6 l/ga) qo'llanilgan kimyoviy preparatlardan keyin Ekobiosfera Organik plyus biostimulyator qo'llanilganda Polvon va Zumrad navlaridan 28,6-30,6 s/ga don hosili olinib, gektaridan 24,8-27,8 million so'mgacha sof foyda va 126,08-146,71 % rentabellikka erishilgan;

Toshkent viloyati sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida no'xat navlaridan yuqori va sifatli don hosili olishda begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar va biostimulyatorlarni birgalikda qo'llash texnologiyasi Toshkent viloyatining Qibray tumani, O'rtachirchiq tuman, Yangiyo'l tumanlari fermer xo'jaliklarida jami 30,0 gektar maydonga joriy etilgan (*Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 05/05-04-749-son ma'lumotnomasi*). Natijada, yerdan foydalanuvchi subyektlar, agroklasterlar, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida no'xat yetishtirish agroteknologiyasi tadbirlarini to'g'ri belgilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotlar har yili O'simliklar karatini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institut va O'zbekiston qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi mutaxassislari tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda predmet va obyektlari tavsiflangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**No'xatda ekini dalalaridagi begona o'tlarga qarshi gerbitsid va biostimulyatorlar qo'llashning ahamiyati**» deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari, dunyoning yetakchi olimlarning ilmiy ishlar natijalari yoritilgan. Bunda, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib no'xat dalasida uchraydigan begona o'tlarning turlari, ularning miqdorlari va uchrash darajasi, begona o'tlarga qarshi kimyoviy

kurash usullari va no'xat ekilgan maydonlarda biostimulyatorlar qo'llashning no'xatning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati hamda don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarning tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, adabiyotlar tahlili so'ngida no'xat ekinida ertagi va yuqori sifatli don mahsulotlarini olishda muhim agrotexnik tadbir begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llashni biostimulyatorlar bilan uyg'unlashtirib ishlatish masalasi ilmiy adabiyotlarda chuqur yoritilmagani va bu borada ilmiy ishlarni olib borish dolzarb ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Dala tajribalarini o'tkazish joylari, tuproq-iqlim sharoiti va tadqiqot uslublar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish tizimlari va uslublari, hamda tajriba dalasida amalga oshirilgan tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari Toshkent viloyati, Qibray tumani hududida joylashgan "Turkiston Shernazarova Nargiza" fermer xo'jaligining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida olib borilgan. Tajriba maydonlarida yer osti suvlari 16,0–19,0 m chuqurlikda joylashgan bo'lib, tuproq namligi nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan.

Tuproqning 0–30 sm qatlamida gumus miqdori 1,042 % bo'lib, pastki qatlamlarga tushgan sari kamaygani kuzatildi. Azot miqdori yuqori qatlamda 0,104 %, pastki qatlamda esa ikki baravar kam bo'ldi. Harakatchan fosfor miqdori 0–30 sm qatlamda 0,121 mg/kg, 30–50 sm qatlamda 0,084 mg/kg ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar tuproqning o'rtacha unumdorlik darajasini ifodaladi.

Toshkent viloyati iqlimi keskin kontinental bo'lib, no'xat yetishtirish uchun qulay hisoblanadi. 2022–2024 yillarda iqlim sharoitlari asosan mo'tadil, yanvar va fevral oylarida o'rtacha harorat (5,5–8,0 °C) bo'lib, ekish davrida yog'ingarchilik 81,7 mm kuzatilib, vegetatsiya davrida nisbiy namlik maqbul bo'lgan, biroq dukkak hosil qilish fazasida kamayib o'rtacha 42 % ni tashkil etgan.

Ilmiy izlanishlar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Begona o'tlar tarqalishi va zararini baholash metodi», «O'zbekiston sharoitida begona o'tlarni identifikatsiya qilish metodikasi», «Методика агрохимических анализов почв и растений», «Методы биохимического исследования растений», «Qishloq xo'jaligida pestitsidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tkazish uchun usul va shartlari» va preparatlarning biologik samaradorligi Abbot formulasi (Gar; Xodjaev) uslubiy qo'llanma, tajriba natijalariga matematik-statistik ishlov berish B.A.Dospexov uslublarida aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**No'xatga zarar keltiradigan begona o'tlarning turlari, miqdori, tarqalishi darajasi va ularga qarshi kurashish tizimida biostimulyatorni qo'llashning o'rni**» deb nomlangan uchinchi bobida no'xat navlari urug'larining laboratoriya sharoitida unish quvvati va unuvchanligi, dala sharoitida unuvchanligi, ko'chat qalinligi hamda yashovchanligi o'rganildi. Shuningdek, no'xatda keng tarqalgan begona o'tlarning turlari, miqdori va zarar yetkazish darajasi aniqlanib, qo'llanilgan gerbitsid va biostimulyatorlarning tasnifi va ekish bilan bir vaqtda qo'llanilgan gerbitsidlarning bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga qarshi samaradorligi baholandi.

**No‘xat ekini dalalarida uchraydigan bir va ko‘p yillik ikki pallali begona o‘tlar turlarining miqdori va ularning zararlash darajasi,**

(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

| No                                     | Begona o‘tlarning nomlari o‘zbek tilida | Begona o‘tlarning nomlari lotin tilida  | Begona o‘tlar 1 m <sup>2</sup> uchrashi | Zararlash darajasi, ballar |
|----------------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|----------------------------|
| Bir yillik ikki pallali begona o‘tlar  |                                         |                                         |                                         |                            |
| 1                                      | Sho‘ra                                  | <i>Amaranthus retrofléxus</i>           | 10,4                                    | 4                          |
| 2                                      | Olabuta                                 | <i>Chenopodium album</i>                | 8,5                                     | 4                          |
| 3                                      | Elpig‘ich meva olabuta                  | <i>Atriplex flabelium Bunge</i>         | 8,3                                     | 4                          |
| 4                                      | Ekma xantal                             | <i>Fagopyrum esculentum Moench</i>      | 8,7                                     | 4                          |
| 5                                      | Uzunbarg xantal                         | <i>Brassica elongata Yehrh</i>          | 4,5                                     | 3                          |
| 6                                      | O‘roqmeva sutlama                       | <i>Euphorbia falcata</i>                | 5,8                                     | 3                          |
| 7                                      | Buxoro tugmachaguli                     | <i>Malva bucharica Iljin</i>            | 3,8                                     | 2                          |
|                                        | O‘rtacha:                               |                                         | 7,14                                    | 3,43                       |
| Ko‘p yillik ikki pallali begona o‘tlar |                                         |                                         |                                         |                            |
| 8                                      | Oddiy otquloq                           | <i>Rumex confertus Willd.</i>           | 4,3                                     | 3                          |
| 9                                      | Qirg‘iybarg pechak                      | <i>Convolvulus pilosellifolius Desr</i> | 4,2                                     | 3                          |
|                                        | O‘rtacha:                               |                                         | 4,25                                    | 3,00                       |
|                                        | Umumiy o‘rtacha:                        |                                         | 5,70                                    | 3,21                       |

No‘xat ekini dalalarida tarqalgan begona o‘tlarning tur tarkibi va ekinga yetkazadigan zarari bo‘yicha ilmiy kuzatuvlar Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi “Turkiston Shernazarova Nargiza” fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan yerlarida olib borildi. Tadqiqotlar natijasida so‘nggi yillarda begona o‘tlar miqdori keskin oshgani va dalalar kuchli ifloslangani aniqlandi. Kuzatuv o‘tkazilgan dalalar tuproqlarining organik moddalarga yetishmovchiligi qayd etildi.

**No‘xat ekini dalalarida uchraydigan bir va ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlar turlarining miqdori va ularning zararlash darajasi,**

(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

| No                                    | Begona o‘tlarning nomlari o‘zbek tilida | Begona o‘tlarning nomlari lotin tilida    | Begona o‘tlar 1 m <sup>2</sup> uchrashi | Zararlash darajasi,ballar |
|---------------------------------------|-----------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------|---------------------------|
| Bir yilliklar boshqoli begona o‘tlar  |                                         |                                           |                                         |                           |
| 1                                     | Ko‘pgul mastak                          | <i>Lolium multiflorum Lam</i>             | 4,2                                     | 3                         |
| 2                                     | Lyudovik sulisi                         | <i>Avena ludoviciana Dur</i>              | 5,2                                     | 4                         |
| 3                                     | Yapon yaltirboshi                       | <i>Bromus japonicus Thunb</i>             | 6,1                                     | 4                         |
| 4                                     | Yopishqoq qo‘noq                        | <i>Setaria verticillata (L.)Beauv.</i>    | 5,2                                     | 4                         |
| 5                                     | Piyozbosh arpa, xarduma, tak-tak        | <i>Hordeum bulbosum L</i>                 | 4,3                                     | 3                         |
|                                       | O‘rtacha:                               |                                           | 5,00                                    | 3,60                      |
| Ko‘p yilliklar boshqoli begona o‘tlar |                                         |                                           |                                         |                           |
| 6                                     | Soqolbosh                               | <i>Polypogon monspeliensis (L.) Desf.</i> | 5,3                                     | 4                         |
| 7                                     | Tuksiz sho‘rajriq                       | <i>Aeluropus littoralis (Gouan) Parl</i>  | 6,2                                     | 4                         |
|                                       | O‘rtacha:                               |                                           | 5,75                                    | 4,00                      |
|                                       | Umumiy o‘rtacha:                        |                                           | 5,38                                    | 3,80                      |


No‘xat ekishdan oldin bir yillik ikki pallali begona o‘tlar umumiy o‘rtacha 1 m<sup>2</sup> da 5,7 dona (3,21 ball), g‘allasimon begona o‘tlar esa umumiy o‘rtacha 5,38 dona (3,7 ball) ni tashkil etib, dalalarda yuqori darajadagi ifloslanish mavjudligi aniqlandi. Bu holat no‘xat dalalarida begona o‘tlar bilan kuchli ifloslanish mavjudligini ko‘rsatdi (1 va 2-jadval).

Qibray tumani “Turkiston Shernazarova Nargiza” fermer xo‘jaligida o‘tkazilgan

tajribalarda no‘xat ekish bilan bir vaqtda bir yillik ikki pallali begona o‘tlarga qarshi pendimetalin ta’sir etuvchi moddasi asosidagi Stomp 33 % em.k. (andoza) va Yastar 33 % em.k. preparatlari qo‘llanilib, ularning samaradorligi o‘rganildi (1-rasm).


Nazorat variantida gerbitsid qo‘llanilmaganda begona o‘tlar miqdori 1 m<sup>2</sup> o‘rtacha 6,0 donani, Stomp 33 % em.k. preparati 2,0 l/ga (andoza) 30 kundan so‘ng begona o‘tlar 0,7 donagacha kamayib, biologik samaradorlik 88,3 % ni tashkil etdi.

Yastar 33 % em.k. preparati 2,0 l/ga me‘yorida qo‘llanganda 30 kundan keyin begona o‘tlar 0,5 donani tashkil etib, biologik samaradorlik 90,3 %, me‘yor 3,0 l/ga gacha oshirilganda begona o‘tlar 0,4 dona, biologik samaradorlik 92,8 % ni tashkil etdi va barcha asosiy begona o‘t turlariga nisbatan yuqori ta’sir ko‘rsatdi.



**1-rasm. No‘xatning zumrad navini ekish bilan birga Pendimethalin ta’sir etuvchi moddasi asosidagi gerbitsidlarni bir yillik ikki pallali begona o‘tlarga qarshi biologik samaradorligi, %**  
(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

Keyingi tajribada no‘xat ekishdan so‘ng bir yillik ikki pallali begona o‘tlarga qarshi prometryn ta’sir etuvchi moddasi asosidagi Gezagard va Gambit sus.k. preparatlarining samaradorligi baholandi (2-rasm).




**2-rasm. No‘xatning zumrad navini ekishdan so‘ng Prometryn ta’sir etuvchi moddasi asosidagi gerbitsidlarni bir yillik ikki pallali begona o‘tlarga qarshi biologik samaradorligi, %**  
(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

Gezagard 50 % sus.k. preparati 2,5 l/ga (andoza) me'yorida qo'llanganda 30 kundan so'ng begona o'tlar 0,8 donani tashkil etib, biologik samaradorlik 86,4 % bo'ldi.

Gambit 50 % sus.k. preparati 2,5 l/ga me'yorida qo'llanganda biologik samaradorlik 90,7 % ni tashkil etdi, 3,0 l/ga me'yorida esa biologik samaradorlik 92,1 % gacha oshib, barcha asosiy begona o't turlariga nisbatan yuqori ta'sir ko'rsatdi.

Keyingi tajribalarda no'xatning vegetatsiya davrida dalalarda uchraydigan bir yillik va ko'p yillik boshqoli hamda ikki pallali begona o'tlarga qarshi Zeta 10 % sus.k. (andoza) va Pilot Gold 10 % sus.k. preparatlarini qo'llash samaradorligi 3-rasmda ko'rsatilgan.



**3-rasm. No'xatning polvon navini o'suv davrida Imazetapir ta'sir etuvchi moddasi asosidagi gerbitsidlarni bir va ko'p yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga qarshi biologik samaradorligi, %**

(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

Zeta 10 % sus.k. preparati 0,5 l/ga (andoza) me'yorida qo'llanganda 30 kundan so'ng biologik samaradorlik 86,3 % ni tashkil etdi.

Pilot Gold 10 % sus.k. preparati 0,5 l/ga me'yorida qo'llanganda samaradorlik 90,9 %, Pilot Gold 10 % sus.k. 0,6 l/ga me'yorida esa 92,2 % bo'lib, deyarli barcha asosiy begona o't turlariga nisbatan yuqori ta'sir ko'rsatdi.

Alohida tajribalarda gerbitsidlar bilan birga qo'llanilgan biostimulyatorlarning no'xat ildiz massasiga ijobiy ta'siri aniqlanib, eng yuqori ildiz massasi Yastar 33 % em.k. 2,0 l/ga, Gambit sus.k. 2,5 l/ga va Pilot Gold 10 % sus.k. 0,5 l/ga variantlarida qayd etildi.

Gerbitsidlar ortiqcha me'yorda qo'llanganda o'simlik ildizida stress holati kuzatilgan, biostimulyatorlar qo'llanganda esa o'simlik kimyoviy stressdan chiqib, normal rivojlanishni davom ettirgani aniqlandi. Biostimulyator qo'llanilgan variantlarda no'xatning vegetatsiya davri 110–114 kunni bo'lib, nazoratga nisbatan 3–6 kunga tezlashgan. Nazoratda begona o'tlar kuchli rivojlanib, hosildorlik va don sifatini pasaytirgani kuzatildi.

Dissertatsiyaning «Gerbitsidlar va biostimulyatorni qo'llashni no'xatning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va uning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri» deb nomlangan to'rtinchi bobida no'xatda gerbitsid va biostimulyatorlarni ketma-ket qo'llashning ildiz massasiga stressga qarshi ta'siri, vegetatsiya davri davomiyligi,

fotosintetik faoliyati, hosil elementlari shakllanishi, hosil strukturasi, hosildorlik hamda don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari gerbitsid va biostimulyatorlar qo'llanilishi no'xat o'simligining o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Dala sharoitida fotosintetik jarayoni no'xatning uchinchi va to'rtinchi rivojlanish davrlarida eng faol kechib, ushbu davrlarda umumiy biomassaning 60–70 % to'plandi. Shu asosda gerbitsid va biostimulyatorlarning barg yuzasi sathiga ta'siri alohida tajribada baholandi.

Tajriba natijalari no'xatning dukkaklash davrida barcha gerbitsid guruhlari (Pendimetalin, Prometryn, Imazapyr) navlar barg yuzasi sathini sezilarli oshirganini ko'rsatdi.

Pendimetalin ta'sir etuvchi moddasi qo'llanganda Zumrad navining dukkaklanish jarayonida barg yuzasi nazoratdagi 106,2 sm<sup>2</sup> dan 112,9–126,0 sm<sup>2</sup>, Polvon navida esa 101,0 sm<sup>2</sup> dan 108,0–120,2 sm<sup>2</sup> gacha oshdi. Bu guruh gerbitsidlari barg yuzasini nazoratga nisbatan 15–25 sm<sup>2</sup> ga ko'paytirdi.

Prometryn asosidagi gerbitsidlarda olingan ko'rsatkichlar ayrim variantlarda undan ham yuqori bo'ldi. Nazoratda Zumrad va Polvon navlarida barg yuzasi 104,5–99,8 sm<sup>2</sup> bo'lgan bo'lsa, Gambit 1,5–3,0 l/ga qo'llanganda esa 117,2–122,8 sm<sup>2</sup> va 111,7–116,9 sm<sup>2</sup> gacha ko'tarildi. O'sish miqdori nazoratga nisbatan 16–23 sm<sup>2</sup>ni tashkil etdi.

Imazapyr ta'sir etuvchi moddasi asosidagi gerbitsidlar ham barqaror yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Nazoratda Zumrad va Polvon navlarida barg yuzasi 105,0–100,2 sm<sup>2</sup> bo'lgan bo'lsa, Pilot gold 0,5–0,6 l/ga variantlarida Zumrad navida 118,3–123,8 sm<sup>2</sup>, Polvon navida 112,8–118,0 sm<sup>2</sup> ga etdi, ya'ni nazoratdan 17–23 sm<sup>2</sup> yuqori bo'ldi.

Umuman olganda, eng yuqori barg yuzasi ko'rsatkichi Pilot gold 10% sus.k. variantida qayd etildi Zumrad-118,8 sm<sup>2</sup>, Polvon-1123,8 sm<sup>2</sup>. Prometryn guruhidagi preparatlar ayrim hollarda Pendimetalindan yuqori natija bergani, Imazapyr esa barcha variantlarda barqaror samarali bo'lgani aniqlandi.

O'simliklarda kechadigan fotosintetik jarayoni va bunda hosil bo'ladigan mahsulotlar bo'lajak hosil taqdirini belgilaydi va bu jarayonga turli omillar bevosita ta'sir ko'rsatdi. Keyingi tajribalarda gerbitsidlar va biostimulyator qo'llash oqibatida no'xat o'simligida fotosintetik sof mahsuldorligi shakllanishi o'rganildi.

Tajriba natijalari ko'rsatishicha, no'xatning gullash va dukkaklash fazalarida gerbitsidlar biostimulyator bilan qo'llanganda o'simlikning quruq modda massasi, barg yuzasi maydoni va fotosintezning sof mahsuldorligi sezilarli oshgan.

Pendimetalin ta'sir etuvchi moddasi qo'llangan variantlarda Yastar 3,0–6,0 l/ga qo'llanganda gullash davrida barg yuzasi Zumrad navida 1546–1604 m<sup>2</sup>/ga, Polvon navida 1479–1533 m<sup>2</sup>/ga ga etdi. Dukkaklash fazasida Yastar 6,0 l/ga varianti eng yuqori quruq modda massasini berdi Zumrad - 9,60 t/ga, Polvon - 9,30 t/ga.

Prometryn ta'sir etuvchi moddasi qo'llangan variantlarda Gezagard 2,5 l/ga qo'llanganda 1395,57 m<sup>2</sup>/ga, Gambit 1,5–3,0 l/ga qo'llanganda 1493–1568 m<sup>2</sup>/ga gacha oshdi. Dukkaklash fazasida Gambit 3,0 l/ga varianti eng yuqori natija berdi Zumrad - 1432,22 m<sup>2</sup>/ga, Polvon - 1374,16 m<sup>2</sup>/ga.

## Gerbitsidlar va biostimulyatorni ketma-ketlikda qo'llashning no'xat hosil strukturasiga ta'siri

(Qibray tumani, Turkiston Shernazarova Nargiza f/x, 2022-2024 yy.)

| Variantlar                                      | No'xat navlari nomi | Gektar daladagi o'simlik tup soni, ming dona | Tup o'simlikdagi dukkaklar soni, dona | Dukkakdagi urug'lar soni, dona | 1000 ta don massasi, gramm |
|-------------------------------------------------|---------------------|----------------------------------------------|---------------------------------------|--------------------------------|----------------------------|
| <b>Pendimetalin + Ekobiosfera Organik plyus</b> |                     |                                              |                                       |                                |                            |
| Nazorat gerbitsidsiz                            | Zumrad              | 111934,7                                     | 33,8                                  | 1,5                            | 302,3                      |
|                                                 | Polvon              | 112358,3                                     | 35,4                                  | 1,6                            | 309,4                      |
| Stomp 2,0 l/ga (andoza)                         | Zumrad              | 114254,7                                     | 37,9                                  | 2,0                            | 286,1                      |
|                                                 | Polvon              | 114562,5                                     | 37,0                                  | 2,1                            | 309,9                      |
| Yastar 3,0 l/ga                                 | Zumrad              | 116783,3                                     | 36,6                                  | 2,1                            | 292,2                      |
|                                                 | Polvon              | 117088,3                                     | 38,4                                  | 2,2                            | 299,4                      |
| Yastar 6,0 l/ga                                 | Zumrad              | 115657,8                                     | 42,1                                  | 2,0                            | 290,7                      |
|                                                 | Polvon              | 116233,1                                     | 40,6                                  | 2,1                            | 301,8                      |
| O'rtacha                                        | Zumrad              | 114657,65                                    | 37,60                                 | 1,9                            | 292,8                      |
|                                                 | Polvon              | 115060,58                                    | 37,85                                 | 2,00                           | 305,13                     |
| <b>Prometryn + Ekobiosfera Organik plyus</b>    |                     |                                              |                                       |                                |                            |
| Nazorat gerbitsidsiz                            | Zumrad              | 112646,3                                     | 39,0                                  | 1,6                            | 299,9                      |
|                                                 | Polvon              | 112627,8                                     | 41,1                                  | 1,7                            | 313,7                      |
| Gezagard 2,5 l/ga (andoza)                      | Zumrad              | 115050,8                                     | 45,5                                  | 1,8                            | 297,7                      |
|                                                 | Polvon              | 115204,6                                     | 43,6                                  | 1,9                            | 319,9                      |
| Gambit 1,5 l/ga                                 | Zumrad              | 116545,0                                     | 34,2                                  | 2,3                            | 303,3                      |
|                                                 | Polvon              | 117463,9                                     | 35,5                                  | 2,2                            | 319,8                      |
| Gambit 3,0 l/ga                                 | Zumrad              | 116630,0                                     | 38,2                                  | 2,1                            | 297,5                      |
|                                                 | Polvon              | 117550,4                                     | 37,1                                  | 2,1                            | 301,7                      |
| O'rtacha                                        | Zumrad              | 115218,03                                    | 39,23                                 | 1,95                           | 299,59                     |
|                                                 | Polvon              | 115711,68                                    | 39,33                                 | 1,98                           | 313,79                     |
| <b>Imazapyr + Ekobiosfera Organik plyus</b>     |                     |                                              |                                       |                                |                            |
| Nazorat (gerbitsidsiz)                          | Zumrad              | 113202,2                                     | 36,8                                  | 1,6                            | 298,8                      |
